

# Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Termiz shahrida



Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Termiz shahrida

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Botir Mardaev Termiz shahridagi mahallalarda yurib, aholi vakillari bilan uchrashib, ularning murojaatlari va takliflarini tinglab, yechimi yuzasidan muloqot qildi. Fuqarolarning murojaatlari bo'yicha "Tinchlik" va "Guliston" mahallalarida asfal'tlash masalasi belgilangan chora-tadbirlar asosida ijobiy hal etiladigan bo'ldi.

Shuningdek, deputat shahardagi qurilishi davom etayotgan ijtimoiy soha ob'ektlari, xususan, Afg'onistonlik investor tomonidan qurilayotgan zamonaviy mehmonxona va uy-joy qurilishi, xususiy maktab qurilishi bilan tanishdi. Jarayon davomida mahalliy tadbirkorlar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlab chiqarish korxonasi "Dream silk shoes" (poyabzal ishlab chiqarish) mas'uliyati cheklangan jamiyat faoliyati bilan tanishdi. MChJ rahbarlari bilan suhbat jarayonida deputat Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'lajallangan taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar

haqida to'htalib, unda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va ishlab chiqarishni yanada kengaytirish borasida katta imkoniyatlar berilganligi to'g'risida fikrlarini o'rtoqlashdi.

